

**“O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar,  
sanoat va savdo vazirligi huzuridagi  
O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish  
agentligining**

**“ 3 ” iyul 2023 yildagi  
108k - son buyrug‘iga**

**7-ILOVA**

**O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi huzuridagi  
O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi Texnik reglamentlar va  
standartlar bo‘yicha dasturlarni amalga oshirish boshqarmasi to‘g‘risida**

**NIZOM**

**1- bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi (keyingi o‘rinlarda — Agentlik deb ataladi) Texnik reglamentlar va standartlar bo‘yicha dasturlarni amalga oshirish boshqarmasi (keyingi o‘rinlarda “Boshqarma” deb yuritiladi)ga qo‘yiladigan talablarni, ularning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini belgilaydi.

2. Boshqarma texnik jihatdan tartibga solish va standartlashtirish faoliyati bo‘yicha o‘zining huquq doirasida umumiy boshqaruv, muvofiqlashtirish amalga oshiradi, yuqorida ko‘rsatilgan sohalarda ish olib borish umumiy qoidalarini belgilaydi.

3. Boshqarma o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va Qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga va boshqa qonun hujjatlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga va farmoyishlariga, O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining Nizomiga, buyruqlariga va qarorlariga hamda, ushbu Nizomga amal qilgan holda ish yuritadi.

4. Boshqarma boshlig‘i lavozimiga oliy texnik ma‘lumotga ega bo‘lgan va O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi tizimida kamida besh yil ishlagan mutaxassis tayinlanadi.

5. Boshqarma xodimi lavozimida oliy texnik malumotga ega bo‘lgan va O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi tizimida kamida uch yil ishlagan mutaxassis ishlashi mumkin.

**2-bob. Boshqarma faoliyatini tashkil etish va tugatish**

6. Boshqarma bevosita Agentlik bosh direktor o‘rinbosariga bo‘ysunadi.

7. Boshqarmaga Agentlik bosh direktor tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan Boshqarma boshlig‘i rahbarlik qiladi.

8. Boshqarmaning xodimlari Bosh direktor tomonidan lavozimlariga tayinlanadilar va lavozimidan ozod qilinadilar.

9. Boshqarma va uning tarkibidagi boshqarma xodimlari o'z faoliyatini belgilangan tartibda tasdiqlangan lavozim yo'riqnomalariga muvofiq amalga oshiradilar.

10. Boshqarma amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etiladi va tugatiladi.

### **3-bob. Boshqarma faoliyatining asosiy vazifa va funksiyalari**

11. Boshqarmaning asosiy vazifalari quyidagilar xisoblanadi.

12. "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi va "Standartlashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonunlarini amalda ro'yobga chiqarilishini ta'minlash;

qabul qilingan texnik reglamentlarni qo'llash asosida inson hayoti va sog'lig'i, yuridik, jismoniy shaxslarning va davlatning mol-mulki xavfsizligini ta'minlash, atrof-muhit muhofaza qilinishini, shuningdek tabiiy resurslardan oqilona foydalanilishini ta'minlash, savdodagi texnik to'siqlarni bartaraf etish, mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligi xususida iste'molchilarni chalg'ituvchi harakatlarning oldini olish bo'yicha yagona davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etish;

texnik jihatdan tartibga solish tizimi rivojlantirilishini ta'minlash;

standartlashtirish bo'yicha ishlarni tashkil etish.

13. Boshqarma o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

a) "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida" va "Standartlashtirish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining qonunlari hamda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi boshqa qonun hujjatlari va normativ-huquqiy hujjatlarning amalda ro'yobga chiqarilishini ta'minlash borasida:

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organlari hamda davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tomonidan kiritilgan texnik reglamentlarni ishlab chiqish dasturi loyihalari bo'yicha umumlashgan takliflar kiritadi;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga texnik reglamentlarni tasdiqlash, ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek ushbu reglamentlarni bekor qilish to'g'risida takliflar kiritadi.

b) qabul qilingan texnik reglamentlarni qo'llash asosida inson hayoti va sog'ligi, yuridik, jismoniy shaxslarning va davlatning mol-mulki xavfsizligini ta'minlash, atrof-muhit muhofaza qilinishini, shuningdek tabiiy resurslardan oqilona foydalanilishini ta'minlash, savdodagi texnik to'siqlarni bartaraf etish, mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligi xususida iste'molchilarni chalg'ituvchi harakatlarning oldini olish bo'yicha yagona davlat siyosatini amalga oshirish borasida:

- texnik reglamentlarda belgilangan talablarning yagonaligini ta'minlash bo'yicha nazorat organlari bilan o'zaro xamkorlik qiladi;

- texnik jihatdan tartibga solish sohasida O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining siyosatini ishlab chiqadi.

v) texnik jihatdan tartibga solish tizimi rivojlantirilishini ta'minlash borasida:

- xalqaro va davlatlararo standartlar loyihalari va ularga o'zgartishlarni ko'rib chiqib, tegishli takliflar kiritadi;

- korxonalar va tashkilotlarning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi murojaatlarini ko'rib chiqish, tegishli tushuntirishlar beradi;

- texnik reglamentlarni ishlab chiqish Dasturlarini shakllantiradi va tasdiqlashga kiritadi;

- texnik jihatdan tartibga solish masalalari bo'yicha davlat va xo'jalik boshqaruvi organlariga o'z vakolatlari doirasida rahbarlik qiladi va ular faoliyatini muvofiqlashtiradi;

- yangi qonun hujjatlarini ishlab chiqish va amaldagi qonun hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlaydi;

- texnik jihatdan tartibga solish sohasida normativ hujjatlar davlat fondini shakllantirishni tashkil etish va muvofiqlashtiradi;

- texnik jihatdan tartibga solish sohasini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarni, konsepsiyalarni, istiqbolli dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etadi.

g) Standartlashtirish sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishni ta'minlash borasida:

- xalqaro, davlatlararo va respublika doirasida standartlashtirish ishlarini tashkillashtiradi;

- Standartlar instituti tomonidan shakllantirilgan standartlashtirish rejalarini ko'rib chiqadi va kelishish yuzasidan rahbariyatga taklif kiritadi;

- standartlashtirish sohasida davlat siyosatini yuritish bo'yicha tegishli takliflar kiritadi;

- standartlashtirish bo'yicha milliy organ huzurida Apellyatsiya komissiyasini tuzish va uning faoliyatini tashkil etish ishlarini muvofiqlashtiradi;

- mahalliy mahsulotlarni ishlab chiqarishda xalqaro standartlarni jadal (amalga kiritish) joriy etish orqali ularning zamonaviy talablarga muvofiqligini ta'minlash va tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini oshirish ishlarida ishtirok etadi;

- standartlashtirish bo'yicha milliy organ tomonidan davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari va boshqa tashkilotlarni standartlashtirish bo'yicha normativ hujjatlar bilan o'rnatilgan tartibda ta'minlash ishlarini muvofiqlashtiradi;

- standartlashtirish bo'yicha normativ hujjatlarning xalqaro talablar bilan zarur uyg'unlashtirilganlik darajasiga erishish ishlarini tashkil etadi;

- standartlashtirish bo'yicha milliy organi va manfaatdor tomonlarning amaldagi standartlarni qayta ko'rib chiqish hamda mahsulotlarning sifati va raqobatbardoshligini ta'minlamaydigan, shuningdek qonunchilik talablariga zid

bo'lgan standartlarni bekor qilish, amal qilishini cheklash to'g'risida tegishli takliflarni rahbariyatga kiritadi;

- standartlashtirish bo'yicha milliy organi tomonidan milliy standartlarni tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish, ularni bekor qilish, shuningdek ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish ishlarini muvofiqlashtiradi;

- texnik jihatdan tartibga solish agentligining faoliyati bilan bog'liq standartlashtirish, texnik reglamentlarni ishlab chiqish bo'yicha prognoz ko'rsatkichlarga erishishni ta'minlash bo'yicha monitoring olib boradi;

- standartlarni ishlab chiqish, kelishish, ekspertizadan o'tkazish va qabul/bekor qilish yoki ularga o'zgartirish kiritish ishlarining amaldagi qoidalarga muvofiq bajarilishi monitoringini amalga oshiradi;

- standartlashtirish bo'yicha milliy organi tomonidan standartlashtirish bo'yicha tarmoq texnik qo'mitalari tashkil etish va ularning faoliyatini muvofiqlashtirish ishlarining bajarilishi monitoringini amalga oshiradi;

- standartlashtirish sohasida halqaro, davlatlararo, mintaqalararo va xorijiy mamlakatlarning standartlashtirish bo'yicha milliy tashkilotlari bilan aloqalarni amalga oshirish ishlarini monitoring qiladi.

14. Boshqarmada mehnat qonunchiligi va ichki mehnat tartibi qoidalariga rioya etilishini tashkil etish.

#### **4-bob. Boshqarmaning huquq va majburiyatlari**

15. Boshqarma quyidagi huquqlarga ega:

- O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining barcha bo'linmalaridan va tizim tashkilotlaridan o'z faoliyatini bajarish uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarni olish;

- texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organlari hamda davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tomonidan kiritilgan texnik reglamentlarni ishlab chiqish dasturlarining loyihalari yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga umumlashtirilgan takliflar kiritadi;

- davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining texnik reglamentlarni ishlab chiqishga doir faoliyatini o'z vakolati doirasida muvofiqlashtiradi hamda tashkil etadi;

- texnik reglamentlarni tasdiqlash, ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek mazkur reglamentlarni bekor qilish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritadi;

- texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspert komissiyasini tuzadi;

- davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tomonidan ishlab chiqilgan texnik reglamentlarni o'z vakolati doirasida ekspertizadan o'tkazadi;

- mahsulotlar va xizmatlarning texnik reglamentlarda belgilangan talablarga muvofiqligini baholash uchun zarur bo'lgan, mahsulotning namunalari olish, sinovlari va o'lchovlari usullarini belgilovchi texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar ro'yxatini tasdiqlashda ishtirok etadi;

- texnik jihatdan tartibga solish sohasida o'z vakolati doirasida xalqaro hamkorlikni amalga oshirishda ishtirok etadi.

- texnik jihatdan tartibga solish masalalarini hal etish uchun davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, tashkilotlar mutaxassislarini belgilangan tartibda jalb etish;

- qonun hujjatlari va normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish hamda belgilangan tartibda kiritish, texnik jihatdan tartibga solish masalalari bo‘yicha qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ko‘rib chiqish hamda ular yuzasidan xulosalar berish;

- mahsulotning raqobatbardoshligini va sifatini ta‘minlamaydigan hamda amaldagi qonun hujjatlariga zid bo‘lgan normativ hujjatlarni bekor qilish, ularning amal qilish muddatini cheklash yoki qayta ko‘rib chiqish to‘g‘risida bajarilishi majburiy bo‘lgan qarorlarni belgilangan tartibda qabul qilish;

- qonun hujjatlari va normativ-huquqiy hujjatlar, standartlashtirish bo‘yicha normativ hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish va belgilangan tartibda kiritish, texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish, akkreditatsiya qilish hamda mahsulotlar sifatini boshqarish masalalari bo‘yicha qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari ko‘rib chiqish hamda ular yuzasidan o‘z vakolati doirasida tegishli xulosalar berish;

- O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining bo‘linmalari, Standartlar instituti mutaxassislarini turli tadbirlar, istiqbolli va yillik rejalar, taxliliy xisobotlar va boshqa hujjatlarni tayyorlashga o‘rnatilgan tartibda jalb etish;

- Standartlar instituti faoliyatini Boshqarma vakolati doirasida tahlil qilish va muvofiqlashtirish;

- standartlarni ishlab chiqish, kelishish, ekspertizadan o‘tkazish va qabul/bekor qilish yoki ularga o‘zgartirish kiritish ishlarining amaldagi qoidalarga muvofiq bajarilishi monitoringi uchun zarur ma‘lumot va materiallarni olish;

- davlat boshqaruv organlari, xo‘jalik birlashmalari, korxonalar, tashkilot va respublika jamoa tashkilotlaridan o‘lchashlar birililigini ta‘minlash tizimi standartlari hamda metrologik me‘yor va qoidalarni joriy qilish va ularga rioya qilish masalalari bo‘yicha;

- O‘zbekiston Respublikasi vazirliklari, idoralari, assotsiatsiya, korxonalar va tashkilotlari bilan kelishilgan holda standartlashtirish va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi masalalarni hal qilish uchun mutaxassislarni jalb qilish;

- standartlashtirish va texnik jihatdan tartibga solish sohasida xalqaro tashkilot, vazirlik, idora, assotsiatsiya, korxonalar va tashkilotlar bilan O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi rahbariyati orqali yozishmalar olib borish;

- Boshqarma xodimlari tomonidan mehnat qonunchiligi va ichki mehnat tartibi qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish;

- ichki mehnat tartibni buzgan, rioya qilmagan xodimlarga nisbatan intizomiy jazo chorasini ko‘rish bo‘yicha rahbariyatga taklif kiritish;

- Boshqarma xodimlari, Standartlar instituti faoliyatlaridan kelib chiqib, ularni rag‘batlantirish yoki tegishli chora ko‘rish bo‘yicha rahbariyatga takliflar kiritish;

- O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida ko‘zda tutilgan boshqa vazifalarni amalga oshirish.

16. Boshqarma quyidagi majburiyatlarga ega:

- Boshqarma o'ziga yuklatilgan ishlarni amalga oshirishda mazkur Nizom va boshqa qonun hujjatlari talablariga rioya qilish;

- Korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olishga qaratilgan qonunchilik hujjatlariga rioya qilish;

- Texnik reglamentlar ishlab chiqish tadbirlarini amalga oshirish tartibiga rioya qilish va ushbu tadbirlar natijalarini qonunchilikka muvofiq rasmiylashtirish;

- Texnik reglamentlar ishlab chiqish chora-tadbirlari natijalari asosida texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi me'yoriy hujjatlar talablarining buzilish holatlarini bartaraf etish choralari ko'rish;

- O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining tashkiliy bo'linmalari va idoraviy mansub tashkilotlar tomonidan standartlashtirishga oid O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarorlari, Farmonlari, farmoyishlari, Hukumat qarorlari bajarilishi yuzasidan tizimli nazoratni ta'minlash;

- O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi tomonidan texnik jihatdan tartibga solish va standartlashtirish sohasidagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritiladigan hujjatlarning sifatli va o'z vaqtida ishlab chiqilishini va ularning ekspertizadan o'tkazilishini tashkil etish.

17. Boshqarma xodimlari belgilangan tartibda va muddatlarda malaka oshirishi va attestatsiyadan o'tishi shart.

18. Boshqarma qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

## **5-bob. Javobgarligi**

19. Boshqarma boshlig'i va uning barcha xodimlari ushbu Nizomda ko'zda tutilgan funksiyalarning o'z vaqtida bajarilishi uchun, taqdim etilayotgan va umumlashtirgan malumotnomalarining to'g'riligi uchun, reja, rahbariyat topshiriqlari, ichki mehnat tartib qoidalari bajarilishi, ishlab chiqarish intizomi, mehnat muhofazasi, texnika, ishlab chiqarish, yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilishga shaxsan javobgar hisoblanadi.

20. Boshqarma o'zi viza qo'ygan hujjatlarning tegishliligi bo'yicha qonunchilikka muvofiqligi uchun javob beradi.

21. Boshqarma xodimlari o'zlariga yuklatilgan vazifalarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi.